

Mart, 2025-Yil

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MANTIQIY TAFAKKURINI
RIVOJLANTIRISH USULLARI**

Karimova Sevara Shaxriddin qizi

Buxoro innovatsiyalar universiteti "Pedagogika, psixologiya va sport" kafedrası o'qituvchisi.

Boltayeva Dilnoza Tulkinovna

Baxromova Maxbuba Tadjibayevna

Yusupova Almaxon Elmuradovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti

Boshlang'ich ta'lim sirtqi yo'nalishi 1-kurs talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15072837>

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash ko'nikmalari yoritib berilgan. Ular uchun mantiqiy fikrlash, masalalarni yechish va axborotlarni tahlil qilishda muhim vositadir. Mantiqiy fikrlash o'quvchilarga murakkab vaziyatlarni tushunishga, fikrlarini aniq ifoda etishga va muammolarni izchil hal etishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Mantiq, fikr, tafakkur, mulohaza, mantiqiy masala, boshlang'ich sinf.

Abstract. The article discusses the logical thinking skills of primary school students. Logical thinking is an essential tool for solving problems and analyzing information for them. Logical thinking helps students to understand complex situations, express their thoughts clearly, and systematically solve problems.

Key words: Logik, thought, thinking, reasoning, logical problem, elementary school.

Аннотация. В статье описаны навыки логического мышления учащихся младших классов. Для них логическое мышление — важный инструмент решения проблем и анализа информации. Логическое мышление помогает учащимся понимать сложные ситуации, ясно выражать свои мысли и последовательно решать проблемы.

Ключевые слова: Логика, мысль, мышление, рассуждение, логическая задача, начальный класс.

Bugungi kunda o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda axborotlar sonining ko'pligi boshlang'ich sinf o'quvchilaridan mantiqiy fikrlash orqali muhim va foydali ma'lumotlarni ajratib olishni talab etadi. Bu jarayon muhim ahamiyatga ega.

Mantiqiy tafakkur har bir insonning dunyoqarashini shakllantiruvchi, ongli va aniq fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi asosiy omildir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning ahamiyati shundaki, bu yoshda o'quvchilar o'zining fikrlash

Mart, 2025-Yil

usullarini shakllantirishi, mantiqiy tahlil qilish va natija chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak. Mantiqiy tafakkur o'quvchilarga bilimlarni o'zlashtirishda samarali yordam berib, ularni hayotda qaror qabul qilish va muammolarni hal qilishda mustahkam poydevor yaratadi.

Mantiqiy tafakkur – bu ma'lumotlarni qayta ishlash, muammolarni tahlil qilish, yechim topish va xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning asosiy vazifasi, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va o'z fikrini asoslash qobiliyatlarini shakllantirishdan iboratdir. Mantiqiy tafakkur nafaqat o'quv yutuqlarini oshiradi, balki hayotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan muhim qobiliyatlarni ham rivojlantiradi.

Mantiq – nafaqat fikrlash qobiliyati, balki izchil va to'g'ri mulohaza yuritish hamda oldiga qo'yilgan masala yoki muommaga to'g'ri yechim topish hamdir. Ya'ni insonlarning kundalik faoliyatida shuningdek munosabatlarida foydali, aniq, asosli ya'ni mantiqiy o'ylay olishi tushuniladi.

Mantiqiy fikrlash – shaxs ijodiy faolligining muhim qirrasini o'zida aks ettirgan fikrlashning oliy pog'onalaridan biri bo'lib, ketma-ketlik hamda izchillik asosida fikrlarning bog'lanishini bildiradi. Demak, mantiqiy fikrlash – inson tomonidan ko'rib, eshitib, bilib, his qilib va anglab olingan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatadi.

Mantiqiylik – tafakkurning yozma va og'zaki nutqda fikrlash qonunlariga amal qilish jarayonidir.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari – mantiqiy o'yinlar, topishmoqlar, masalalar va boshqotirmalarni yechish va bajarish, shaxmat o'ynash, kitob o'qish, tanqidiy fikrlashni o'rganish, munozara va bahslarda ishtirok etish, fikrlash jarayonini tasavvur qilish, vaziyatlarni simulyatsiya qilish, kundalik yuritish va boshqalar. Bu jarayonda har bir elementga jiddiy e'tibor qaratish, turli xil predmetlar o'rtasidagi bog'liq bo'lmagan yoki mavhum bo'lgan jihatlarni qidirib topish, yangi faktlarni aniqlash va taqqoslash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mumkin. O'quv jarayonida esa, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish ko'p hollarda loyihalar metodi, tadqiqot metodi, dasturlashtirish va muammoli o'qitish metodlaridan foydalanishni ham taqozo etadi.

Mantiqiy fikrlashni aniqlashning bir necha usullari mavjud:

Birinchisi, bu tafakkur orqali dunyoni o'zlashtirib borishga qaratilgan murakkab bilim jarayoni; Ikkinchisi, doimiy ravishda yangi narsalarni, yangiliklarni qidirish va kashf etish.

Fikrlash bu – insonda muammoli vaziyat vujudga kelgan vaqtdan boshlanadi va chuqurroq o'ylab javob berishni talab qiladi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish usullari:

1. **Masalalar va jumboqlarni yechish.** O'quvchilarga masalalar va jumboqlarni yechish, ular mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalalar o'quvchilarga muammoni tahlil qilish, turli xil yechimlarni ko'rib chiqish va mantiqiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Masalan, geometrik shakllar, hisob-kitob masalalari yoki oddiy logik-jumboqlarni yechish o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni mustahkamlaydi.

2. **Savol-javob usuli.** O'quvchilarga turli savollarni berish, ularga javob berishga undash mantiqiy tafakkur jarayonini faollashtiradi. Savollarni berishda ular o'quvchilarga faqat oddiy javobni emas, balki fikrlarini asoslab berishni talab qilishlari lozim. Bu usul o'quvchilarning argumentatsiya qobiliyatlarini rivojlantiradi.

3. **O'yinlar orqali o'qitish.** O'yinlar – boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasidir. Mantiqiy o'yinlar, masalan, "Xato top", "Javobni top", "So'zlarni bog'lash" kabi o'yinlar o'quvchilarda diqqatni jamlash, mantiqiy fikrlash va xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. **Guruh bo'lib ishlash.** O'quvchilarni guruhlariga ajratib, birgalikda masalalarni yechish yoki mavzularni muhokama qilishni tashkil etish, ularning fikrlash jarayonlarini faollashtiradi.

Guruh ishlari o'quvchilarga o'z fikrlarini boshqalar bilan baham ko'rishga, boshqalarning fikrlarini tinglashga va eng yaxshi yechimni birgalikda topishga yordam beradi.

5. **Tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish.** O'quvchilarni turli xil vaziyatlar va masalalar haqida o'ylashga undash, ular uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim yo'nalishidir.

O'quvchilarga masalalarni tahlil qilishda turli nuqtai nazardan yondashishni, o'ylash va mulohaza qilishni rag'batlantirish kerak. Bu ularning mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda adabiyotlarning o'rni

Adabiyot darslari ham mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Hikoyalar, ertaklar va adabiy asarlar orqali o'quvchilar o'zlarining fikrlarini yaratishga, muallifning niyatini tushunishga, shuningdek, bosh qahramonlarning qarorlaridan xulosalar chiqarishga o'rganadilar.

Bu orqali o'quvchilar mantiqiy fikrlashni mustahkamlashadi va o'z dunyoqarashlarini shakllantiradilar.

Mantiqiy fikrlashni o'stirishda har bir masalaning yechimi chuqur tafakkur va izchillikni talab qiladi, bu esa o'quvchilar uchun muhim ko'nikma hisoblanadi.

Mart, 2025-Yil

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, o'yinlar va masalalar bilan shug'ullanishga o'rgatib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu ularga kelajakda keng tafakkurli, oliyjanob inson bo'lib yetishishlarida hamda qobiliyatlarni shakllantirishda poydevor bo'ladi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun samarali usullarni qo'llash zarur. Masalalar, jumboqlar, savol-javoblar, guruh ishlari va o'yinlar orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Adabiyot darslari ham bu jarayonda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, mantiqiy tafakkur o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari va jamiyatda faol ishtirok etishlari uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmadir.

REFERENCES

1. Turing, A. M. (1936). *On Computable Numbers, with an Application to the Entscheidungsproblem*. Proceedings of the London Mathematical Society, 2(42), 230-265.
2. Nakamoto, S. (2008). *Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System*. Retrieved from <https://bitcoin.org/bitcoin.pdf>
3. Dastbaz, M., & Ghaffarian, S. (2017). *5G Wireless Systems: Design, Simulation, and Implementation*. Wiley.
4. Nasriddinova, N. A. (2022). Methods for the development of reading literacy of primary school students through independent thinking. *J. International Journal of Health Sciences.– Hindiston*, 1690-1695.
5. Nasriddinova, N. (2024). THE METHODOLOGY OF SPEECH LITERACY DEVELOPMENT THROUGH THE FORMATION OF STUDENTS'READING COMPREHENSION SKILLS IN PRIMARY EDUCATION. *Science and innovation*, 3(B6), 232-235.
6. Nasriddinova, N. A., Otaxonova, M. F., & Quziboyeva, O. O. (2021). READING IS THE MOST IMPORTANT FACTOR OF LITERACY. *Экономика и социум*, (5-1), 358-361.
7. Nasriddinova, N. A., Otaxonova, M. F., & Quziboyeva, O. O. (2021). O'QISH-SAVOD CHIQARISHNING ENG MUHUM OMILI. *Экономика и социум*, (5-1 (84)), 358-361.

Mart, 2025-Yil

8. Nasriddinova, N. A., & Otaxonova, M. F. Q. (2021). O'SIB KELAYOTGAN YOSH AVLODNI TARBIYALASHDAGI YUTUQ VA KAMCHILIKLAR. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 616-621.
9. Nasriddinova, N. A. (2020). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA OYNAI JAHON (TELEVIZOR) NING AHAMIYATI. In *Молодой исследователь: вызовы и перспективы* (pp. 380-382).
10. Turdiyeva, R. K., Nasriddinova, N. A., Nazarkulova, G. A., Ummatkulova, S. S., & Khojaboyeva, Z. S. K. Methods for the development of reading literacy of primary school students through independent thinking. *International Journal of Health Sciences*, (V), 1690-1695.
11. Nasriddinova, N. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQ TOVUSHLARINI TO'G'RI TALAFFUZ QILISHDA YO'L QO'YGAN KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(8), 14–17. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/13639>
12. Nasriddinova N. (2022). O'QUVCHILARNING SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA ONA TILI VA O'QISH FANINING AHAMIYATI. Евразийский журнал академических исследований, 2(5), 731–734. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/3172>
13. Shahriddinovna, K. S. (2023). Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 19, 183-187.
14. Shahriddinovna, K. S. (2023). INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(06), 09-14.
15. Shahriddinovna K. S. Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students // *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*. – 2023. – T. 19. – C. 183-187.
16. Shahriddinovna K. S. INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD // *American Journal of Applied Science and Technology*. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 09-14.

Mart, 2025-Yil

17. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF "NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. Science and innovation, 1(B6), 214-218.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH